

HUDUDNING INVESTITSION FAOLLIGIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR

Ahmadova Shahlo Ozodqul qizi

O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi, Iqtisodiyot, 2-kurs magistrantishahloahmadova01@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada hududning investitsion faolligiga ta'sir etuvchi asosiy omillar ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Hududning investitsion jozibadorligi iqtisodiy rivojlanishning muhim omili sifatida ko'rib chiqiladi. Maqolada investitsion faollikka ta'sir etuvchi iqtisodiy, ijtimoiy, infratuzilmaviy, siyosiy-huquqiy va institutsional omillar tizimli ravishda o'rganilgan. Shuningdek, hududlarda investitsion muhitni yaxshilash bo'yicha ilmiy xulosalar va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: investitsiya, hududiy rivojlanish, investitsion muhit, iqtisodiy omillar, infratuzilma, investitsion jozibadorlik, iqtisodiy o'sish.

Kirish. Bozor iqtisodiyoti sharoitida investitsiyalar iqtisodiy rivojlanishning asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Investitsiyalar ishlab chiqarishni kengaytirish, yangi texnologiyalarni joriy etish, ish o'rinlari yaratish hamda iqtisodiy o'sishni ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Hududlarning iqtisodiy rivojlanishi ko'p jihatdan investitsiya jalb qilish darajasiga bog'liq. Investitsiya resurslari yetarli bo'lmagan hududlarda iqtisodiy rivojlanish sekinlashadi. Shu sababli hududlarning investitsion faolligini oshirish dolzarb iqtisodiy masalalardan biri hisoblanadi. Hududning investitsion faolligi investitsiya hajmi, investitsiya loyihalari soni va investitsiya muhiti jozibadorligi orqali belgilanadi. Investitsion faollikka turli omillar ta'sir ko'rsatadi va ularni ilmiy jihatdan o'rganish muhim ahamiyatga ega. Davlat investitsiya dasturlari mamlakat iqtisodiyotining turli sohalarini muvozanatli rivojlantirish, resurslardan oqilona foydalanish va barqaror o'sishni ta'minlashda muhim mexanizm hisoblanadi. O'zbekiston sharoitida bu dasturlar orqali energetika, transport, ijtimoiy soha va sanoat loyihalariga ustuvorlik berilmoqda. Masalan, 2019–2024-yillar davomida davlat investitsiya dasturi doirasida energetika sohasida 30 ta yirik elektr stansiyasi modernizatsiya qilindi yoki yangidan qurildi. Natijada elektr energiyasi ishlab chiqarish hajmi 13 foizga oshdi.

Asosiy qism. Iqtisodiy omillarning ta'siri. Hududning investitsion faolligiga ta'sir etuvchi asosiy omillardan biri iqtisodiy omillar hisoblanadi. Investorlar investitsiya kiritishda, avvalo, hududning iqtisodiy imkoniyatlarini hisobga oladi. Bozor hajmi investitsiya jalb qilishda muhim ahamiyatga ega. Aholi sonining ko'pligi va iste'mol talabining yuqoriligi investorlar uchun qulay sharoit yaratadi. Iqtisodiy barqarorlik ham muhim omil hisoblanadi. Inflyatsiyaning yuqori darajasi va iqtisodiy beqarorlik investitsiya xavfini oshiradi. Barqaror iqtisodiyot esa investitsiya oqimini ko'paytiradi. **Hududning sanoat salohiyati** ham investitsiya jalb qilishda muhim rol o'ynaydi. Sanoati rivojlangan hududlarda ishlab chiqarish infratuzilmasi mavjud bo'ladi.

Soliq siyosati investitsion faollikka sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Soliq imtiyozlari investorlarni rag'batlantiradi.

Tabiiy-geografik omillarning ta'siri.

Hududning geografik joylashuvi investitsion faollikni belgilovchi muhim omillardan biridir.

Transport yo'llariga yaqin hududlarda investitsiya loyihalarini amalga oshirish osonroq bo'ladi. Transport xarajatlarining kamayishi investitsiya samaradorligini oshiradi.

Tabiiy resurslarning mavjudligi investitsiya jalb qilishda muhim ahamiyatga ega. Foydali qazilmalarga boy hududlarda sanoat tez rivojlanadi.

Iqlim sharoiti ham investitsion faollikka ta'sir qiladi. Qishloq xo'jaligi uchun qulay iqlim investitsiya hajmini oshiradi.

Infratuzilma omillari. Hududning investitsion jozibadorligini belgilovchi asosiy omillardan biri infratuzilma hisoblanadi. Transport infratuzilmasining rivojlanganligi investitsiya xarajatlarini kamaytiradi. Avtomobil yo'llari va temir yo'llar investitsiya loyihalarini amalga oshirishda muhim ro'l o'ynaydi. Energetika infratuzilmasi ham muhim hisoblanadi. Elektr energiyasi va gaz ta'minotining barqarorligi ishlab chiqarish jarayonining uzluksizligini ta'minlaydi. Telekommunikatsiya tizimi rivojlangan hududlarda biznesni yuritish osonroq bo'ladi.

Ijtimoiy omillar. Hududning investitsion faolligiga ijtimoiy omillar ham sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Mehnat resurslarining mavjudligi investitsiya jalb qilishning muhim omillaridan biridir. Ishchi kuchining yetarli bo'lishi ishlab chiqarish rivojlanishini ta'minlaydi. Malakali kadrlarning mavjudligi investitsiya samaradorligini oshiradi. Zamonaviy ishlab chiqarish yuqori malakali mutaxassislarni talab qiladi. Ta'lim tizimining rivojlanganligi investitsiya jalb qilishga yordam beradi.

Siyosiy-huquqiy omillar. Siyosiy-huquqiy muhit investitsion faollikka katta ta'sir ko'rsatadi.

Siyosiy barqarorlik investorlar uchun muhim hisoblanadi. Siyosiy beqarorlik investitsiya xavfini oshiradi.

Investor huquqlarining himoya qilinishi investitsiya jalb qilishning muhim sharti hisoblanadi.


Davlat tomonidan investitsiyalarni qo'llab-quvvatlash investitsion faollikni oshiradi.

Innovatsion omillar. Innovatsion rivojlanish investitsion faollikni oshiradi. Zamonaviy texnologiyalar ishlab chiqarish samaradorligini oshiradi. Ilmiy-tadqiqot ishlari rivojlangan hududlarda investitsiya loyihalari samarali amalga oshiriladi. Raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi investitsiya muhitini yaxshilaydi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, hududning investitsion faolligi ko'plab omillarga bog'liq bo'lib, ularning o'zaro ta'siri investitsiya muhitini shakllantiradi. Investitsion faollikni oshirish uchun quyidagi chora-tadbirlar muhim hisoblanadi:

- infratuzilmani rivojlantirish;
- soliq imtiyozlarini kengaytirish;
- investitsiya xavfini kamaytirish;
- biznes muhitini yaxshilash;
- innovatsiyalarni rivojlantirish.

Moliyaviy omillar. Hududda moliya bozorining rivojlanganligi, bank kreditlari va investitsiya resurslaridan foydalanish imkoniyatlari investitsion faollik darajasini belgilaydi. Imtiyozli kreditlar, soliq yengilliklari, subsidiyalar va davlat kafolatlari investorlar uchun


qo'shimcha rag'batlantiruvchi mexanizm bo'lib xizmat qiladi. Davlat va xususiy sektor hamkorligi asosida amalga oshiriladigan loyihalar hududiy investitsiyalarni kengaytirishda muhim ahamiyat kasb etadi.



1-rasm.Hududlarning investitsion faolligiga ta'sir etuvchi omillar

Investitsiya faoliyatiga ta'sir ko'rsatuvchi ushbu omillarning o'zaro bog'liq majmui muayyan mamlakat iqtisodiyotidagi investitsiya faolligining hal qiluvchi darajasini belgilaydi. Demak, investitsiya faoliyati haddan tashqari ko'p o'lchovli, murakkab va sarmazmun tushunchadir.

Investitsiya salohiyati makroiqtisodiy ko'rsatkichlar asosida baholanib, quyidagilarni o'z ichiga oladi:




2-rasm.Investitsiya salohiyati makroiqtisodiy ko'rsatkichlari

Chet ellarda investitsiya faoliyatiga baho berish uslublari bir-biridan farq qiladi. Odatda

bu borada makroiqtisodiy yondashuvdan foydalaniladi. Masalan, Yaponiyada investitsiya faoliyatiga bayoniy tavsif berilib, miqdoriy baholash qo'llanilmaydi. AQSHda esa investitsiya faolligi to'rtta umumlashtirilgan ko'rsatkich – ishbilarmonlik faolligi, xo'jalik tizimining rivojlanish salohiyati, investitsiyalarning iqtisodiy samaradorligi va soliq siyosatining asosiy tarkibiy qismlari asosida aniqlanadi. **Xorijiy tajriba** investitsion faollikni oshirish bo'yicha samarali siyosat va mexanizmlarni shakllantirishda muhim manba hisoblanadi. Ko'pgina rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar hududiy investitsiya siyosatida innovatsion yechimlar, maxsus iqtisodiy zonalar (MIZ), institutsional islohotlar hamda investitsiya infratuzilmasini mustahkamlash orqali investitsiyalarni jalb etishda sezilarli natijalarga erishgan. Masalan, AQSh va boshqa G'arbiy mamlakatlar maxsus iqtisodiy zonalar orqali chet el faol investorlarini jalb qilish amaliyotini muvaffaqiyatli qo'llamoqda. Bu zonalar investorlar uchun soliq imtiyozlari, tasdiqlangan infratuzilma va soddalashtirilgan ma'muriy tartiblarni taklif etadi, natijada investitsiya oqimining ko'payishiga olib keladi. MIZlar hududiy iqtisodiy o'sishni rag'batlantiruvchi mexanizm sifatida ham xizmat qiladi, chunki ularning faoliyati klasterlash jarayonlari orqali kichik va o'rta biznes sektorining rivojlanishini qo'llab-quvvatlaydi va ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlaydi.

Dolzarblik. O'zbekiston Respublikasiga asosiy kapitalga investitsiyalarning jami hajmi bilan MIZlar miqyosida asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi solishtirilganda, 2024-yilni hisobga olmaganda jami investitsiyalarning 2 foizini ham tashkil qilmaganini ko'rish mumkin. Lekin, 2024-yilda MIZlar miqyosida asosiy kapitalga investitsiyalar jami investitsiyalarning qariyb 3 foizdan ortig'ini tashkil qilgan. Bu esa sekin-astalik bilan ijobiy tendensiya shakllanayotganini namoyon etadi. O'zbekistonda MIZlar investitsiyalarni jalb qilishda sezilarli o'sishga erishmoqda. 2018–2024-yillar davomida MIZlarga asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi asta-sekin oshib, 2024-yilda jami investitsiyalarning 3,3 foizini tashkil qildi. Hududlar kesimida esa Buxoro, Samarqand, Navoiy, Jizzax va Sirdaryo viloyatlari yetakchi o'rinlarni egalladi. Shuningdek, Buxoro viloyatida MIZlarning qisqa davr ichida keskin o'sishi kuzatilib, investitsiyalarning deyarli 40 foizini jalb qilgani e'tiborga molik. Shu bilan birga, hududlarda investitsiya oqimining barqaror emasligi va ayrim yillarda keskin pasayishi MIZlarning samaradorligini pasaytiruvchi omillardan biridir.

2024-yilda MIZlar tomonidan o'zlashtirilgan jami investitsiyalar 16511,5 mlrd. so'mni tashkil qilgan. Agar bu hajm AQSh dollari nisbatiga hisoblanadigan bo'lsa 1,3 mlrd. AQSh dollari miqdorini tashkil etadi. Ma'lumot uchun, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-41-son Farmoniga muvofiq MIZlarga investitsiyalarni hajmini 2,3 mlrd. AQSh dollarga




oshirish reja qilingan. 2024-yilda 2023-yilga nisbatan asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi 2,3 baravarga oshgan. Agar 2024-yildagidek tendensiya davom etadigan bo'lsa, yaqin yillarda mazkur maqsadga erishish mumkin bo'ladi. MIZlarga kiritilayotgan asosiy kapitalga investitsiyalar mamlakat miqyosida kam ko'ringani bilan lekin MIZlarning o'tgan yildagi ma'lumotlari bilan solishtirganda tendensiya ijobiy tomonga o'zgarayotganini ko'rish mumkin va yildan-yilga ularning hisssasi oshib boryapti.

O'zbekiston Respublikasida 2018-2024-yillarda MIZlar miqyosida asosiy kapital investitsiyalarining o'sish sur'ati (foizda)

2018-2024-yillarda O'zbekiston Respublikasi hududlardagi MIZlarning asosiy kapitalga investitsiyalarini hududlardagi jami asosiy kapitalga investitsiyalaridagi ulushi.

Xulosa. Umuman olganda, keltirilgan nazariy xulosalar shuni ko'rsatadiki, hududlarning investitsiya faolligini oshirish faqat moliyaviy resurslarni jalb etish bilan



cheklanmay, balki qulay institutsional muhit yaratish, infratuzilmani rivojlantirish, inson kapitalini mustahkamlash va investitsiyalarni hududiy rivojlanish ustuvor yo'nalishlariga yo'naltirishni talab etadi. O'zbekiston sharoitida ham MIZlarni rivojlantirish xorijiy tajribaga tayangan holda, hududiy xususiyatlarni inobatga olgan tarzda amalga oshirilishi maqsadga muvofiqdir. Jumladan, Samarqand viloyati kabi yuqori salohiyatga ega hududlarda MIZlarni turizm, qayta ishlash sanoati, logistika va innovatsion xizmatlar bilan integratsiyalash investitsion faollikni yanada oshirish imkonini beradi. Shu bilan birga, MIZlar faoliyatining monitoringini kuchaytirish, ularning real iqtisodiy samaradorligini baholash va natijador loyihalarni qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini takomillashtirish zarur.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Hududiy iqtisodiyot. – Toshkent, 2019.
2. Investitsiya faoliyati to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Qonuni.
3. Iqtisodiyot nazariyasi. – Toshkent, 2018.
4. Kenjayev, I. (2025). *Mintaqaviy investitsiya siyosatini samarali boshqarishning iqtisodiy va institutsional asoslari*. Yashil iqtisodiyot va barqaror taraqqiyot ilmiy jurnali,
5. Hasanov, A. (2023). Investitsion faoliyatga ta'sir etuvchi omillar. *Scientific Innovations*, 2(4), 45–53.
<https://in-academy.uz/index.php/si/article/view/41799>
6. O'zbekiston Respublikasi Milliy Statistika qo'mitasi ma'lumotlari - <https://siat.stat.uz/>